O‘XSHATISHLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING TARJIMADAGI O‘RNI

Qalandarova Dilfuza Yangiboyevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
dilfuza.90qalandarova@gmail.com; ORCID: 0009-0002-9412-6626

Annotatsiya: *ushbu tezis o‘xshatishning nazariy asoslari va uning badiiy tarjimadagi o‘rniga bag‘ishlangan. Tezisda o‘xshatishning lingvistik tabiati, tarkibiy qismlari (o‘xshatuvchi, o‘xshatilmish, o‘xshatish asosi va vositasi) hamda turlari (oddiy va kengaytirilgan, tashqi ko‘rinish, harakat-holat, xarakter va milliy-madaniy obrazlarga asoslangan) yoritilgan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida milliy-madaniy obrazlarga asoslangan o‘xshatishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, badiiy tarjima, sun’iy intellekt, tilshunoslik, “O‘tkan kunlar”, metafora, moslashtirish, tasviriy tarjima, milliy-madaniy obraz.*

Аннотация: *данный тезис посвящён теоретическим основам сравнения и его роли в художественном переводе. В работе освещена лингвистическая природа сравнения, его структурные компоненты (субъект, объект, основание и средство сравнения), а также его типы (простые и развёрнутые, основанные на внешнем облике, действии-состоянии, характере и национально-культурных образах). На примере романа Абдуллы Кадыри “Минувшие дни” проанализированы сравнения, основанные на национально-культурных образах.*

Ключевые слова: *сравнение, художественный перевод, искусственный интеллект, языкознание, “Минувшие дни”, метафора, адаптация, описательный перевод, национально-культурный образ.*

Annotation: *this thesis examines the theoretical foundations of the simile and its role in literary translation. It addresses the linguistic nature of the simile, its structural components (the compared, the standard of comparison, the basis, and the marker), and its types (simple and extended, as well as those based on appearance, action-state, character, and national-cultural imagery). based on national-cultural imagery are analyzed using Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar” (“Bygone Days”) as material.*

Key words: *simile, literary translation, artificial intelligence, linguistics, “O‘tkan kunlar”, metaphor, adaptation, descriptive translation, national-cultural imagery.*

Til taraqqiyoti davomida inson tafakkurining voqelikni obrazli anglash ehtiyoji turli tasviriy-ifoda vositalarini yuzaga keltirdi. Ana shunday vositalardan biri — o‘xshatish. Tilshunoslikda o‘xshatish ikki narsa, hodisa yoki shaxs o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgi-xususiyatini yanada aniq, ta’sirchan va obrazli ifodalash usuli sifatida ta’riflanadi.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish muammosi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, A.Hojiyev o‘xshatishni nutqning obrazliligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida belgilaydi va uni sifatlash, metafora kabi boshqa ko‘chim turlaridan farqlaydi. O‘xshatishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda taqqoslanayotgan ikki predmet orasidagi bog‘liqlik til vositalari (-dek, -day, kabi, singari, misoli, go‘yo) orqali ochiq ifodalanadi, holbuki metaforada bu bog‘liqlik yashiringan bo‘ladi.

O‘xshatishning tarkibiy qismlari an’anaviy ravishda quyidagicha belgilanadi:

— o‘xshatuvchi (tasvirlanayotgan predmet yoki hodisa);

— o‘xshatilmish (taqqoslash uchun tanlangan obraz);

— o‘xshatish asosi (ikkalasi uchun umumiy bo‘lgan belgi);

— o‘xshatish vositasi (grammatik ko‘rsatkich: -dek, -day, kabi va h.k.).

Masalan, "yoqutdek lablari" iborasida "lablar" — o‘xshatuvchi, "yoqut" — o‘xshatilmish, rang va yorqinlik — o‘xshatish asosi, "-dek" qo‘shimchasi esa o‘xshatish vositasidir.

O‘xshatishlar tuzilishiga ko‘ra oddiy (bir bo‘g‘inli) va kengaytirilgan (batafsil tasvirlangan) turlarga bovlinadi. Oddiy o‘xshatishlarda taqqoslash bir so‘z yoki qisqa ibora orqali beriladi (masalan, "sadaf kabi oq tishlari"), kengaytirilgan o‘xshatishlarda esa taqqoslash butun bir jumla yoki hatto bir necha jumla davomida rivojlantiriladi, bunda muallif obrazni turli qirralari bilan ochib beradi.

Ma’no xususiyatiga ko‘ra o‘xshatishlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

— tashqi ko‘rinishga asoslangan o‘xshatishlar (rang, shakl, hajm o‘xshashligi);

— harakat-holatga asoslangan o‘xshatishlar;

— xarakter va ichki kechinmalarni ifodalovchi o‘xshatishlar;

— milliy-madaniy obrazlarga asoslangan o‘xshatishlar (masalan, diniy, mifologik yoki maishiy hayotdan olingan obrazlar).

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani xuddi ana shu oxirgi guruhga mansub o‘xshatishlarga boy. Muallif milliy turmush tarzi, urf-odat va diniy tasavvurlardan kelib chiqqan obrazlarni ("yoqut", "sadaf", "ona qorni" kabi) mahorat bilan qo‘llab, o‘ziga xos badiiy uslub yaratgan.

Badiiy tarjimada o‘xshatishlarni berish tarjimonlar oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir, chunki bunda nafaqat leksik ma’noni, balki

obrazning madaniy-estetik yukini ham saqlab qolish talab etiladi. Tarjimashunoslikda bu masalani hal qilishning bir necha yondashuvi mavjud:

1) to‘liq ekvivalentlik usuli — manba tildagi obraz tarjima tilida ham xuddi shunday obraz orqali beriladi;

2) qisman moslashtirish (adaptatsiya) — obraz tarjima tili madaniyatiga yaqinroq boshqa obraz bilan almashtiriladi;

3) tasviriy (deskriptiv) tarjima — obraz saqlanmay, uning ma’nosi tushuntirish yo‘li bilan beriladi;

4) tushirib qoldirish — agar obraz tarjima tilida umuman tushunarsiz yoki noo‘rin bo‘lsa, o‘xshatish olib tashlanadi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlarining (Google Translate, DeepL, ChatGPT va boshqalar) rivojlanishi tarjima amaliyotiga jiddiy ta’sir ko'rsatmoqda. Bu tizimlar katta hajmdagi parallel matnlar (korpus) asosida statistik yoki neyron tarmoq usulida ishlaydi va odatiy, publitsistik yoki ilmiy-texnikaviy matnlarni tarjima qilishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Biroq badiiy matn, xususan, o‘xshatish kabi obrazli vositalarni tarjima qilishda ularning imkoniyati cheklangan, chunki:

— sun’iy intellekt tizimlari matnni kontekstdan tashqarida, alohida jumla darajasida qayta ishlaydi, bu esa keng matn ichida shakllangan obrazli ma’noni to‘liq anglashga xalaqit beradi;

— ular ijodiy qayta ishlash (masalan, obrazni kengaytirish, boshqa obraz bilan moslashtirish) qobiliyatiga ega emas, faqat o‘rgatilgan namunalar asosidagi statistik ehtimollikka tayanadi;

— milliy-madaniy konnotatsiyaga ega obrazlarni (masalan, diniy yoki mifologik obrazlarni) ko‘pincha tom ma’noda tarjima qiladi, natijada asl obrazning emotsional-estetik ta’siri yo‘qoladi.

Shunga qaramay, sun’iy intellekt tizimlarini tarjimon uchun foydali yordamchi vosita sifatida baholash mumkin: ular tarjima jarayonining boshlang‘ich bosqichida qoralama variant yaratish, katta hajmdagi matnni tezkor tushunish va lug‘aviy izlanishni tezlashtirish imkonini beradi. Ammo badiiy asarning yakuniy, nashrga tayyor tarjimasini yaratishda inson tarjimonining ijodiy salohiyati, badiiy did va ikki til-madaniyatni chuqur bilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, o‘xshatish badiiy matnning eng muhim va murakkab tasviriy vositalaridan biri bo‘lib, uning tuzilishi, turlari va ma’no xususiyatlari tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilgan. Biroq uni boshqa tilga, xususan, madaniy jihatdan farqli tilga tarjima qilish nazariy va amaliy jihatdan bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi tarjima jarayonini tezlashtirsa-da, badiiy o‘xshatishlarning milliy-

madaniy va estetik mohiyatini to‘liq saqlashda hozircha inson tarjimasiga muqobil bo‘la olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2002.

2. G‘aybulloh as-Salom. “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”dan ma’ruzalar matni chizgilari. — Toshkent, 2003, 54 bet.

3. Rustamov A. So‘z xususida so‘z. — Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.

4. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. — Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2019, 396 bet.

5. "Bygone Days" by Abdulla Qodiriy, translated by Mark Reese, 2020, 493 pp.